**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
____________________
"____" __________ 2024 yil

# XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA TARIXI O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| Ta'lim sohasi: | 220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari) |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60220300 – Tarix |

**Chirchiq – 2024**

| Fan/modul kodi XD1604 | | O'quv yili 2026-2027 | | Semestr 6 | ECTS - Kreditlar 4 | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili O'zbek | | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi | | | 60 | 60 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – qadimgi davrdan to hozirgi kungacha xorijiy mamlakatlar o'rtasida asrlar davomida mavjud bo'lgan serqirrali xalqaro munosabatlar va diplomatiya evolyutsiyasining asosiy bosqichlari hamda yo'nalishlari haqida talabalarga har tomonlama bilimlar berish. Turli davrlarning tarixiy sharoitlarida sodir bo'lgan xalqaro voqea va hodisalarning davlatlar hayotiga ta'siri, dunyo xalqlarining davlatchiligida xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi, shuningdek, tashqi siyosat bilan bog'liq jarayonlarga oid masalalarni tahlil qilishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - talabalarga "Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi" fani nazariyasini chuqur o'rgatish, jahon maydonida faoliyat olib boruvchi chet el davlatlarining siyosati va uni amalga oshirishda diplomatiyaning ahamiyatini yoritish, hamda jahon taraqqiyotida xalqaro munosabatlar va diplomatining o'rni va mavqei mustaxkamlanib borishini asoslab berishdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1- mavzu. Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya**

Qadimgi Mesopotamiyada xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Shahar davlatlar ("nom"lar) o'rtasidagi munosabatlar. "Kish podshosi". Lagesh va Umma o'rtasidagi raqobat. Elamning tashqi siyosati. Sargon va uning tashqi siyosati. Diplomatik aloqalarning shakllari. Qadimgi Misrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Giksoslarning hukmronligi. XVII sulola fir'avinlarning tashqi siyosati. Al-Amarna arxivi. Qadimgi Misrda diplomatik aloqalarning shakllari. Ramzes II va Xattusili III o'rtasida tuzilgan shartnoma. Qadimgi Xett podsholigining tashqi siyosati. Xett podsholigida diplomatik aloqalar shakllari. Miloddan avvalgi I ming yillikda Yaqin Sharqda xalqaro kurash. Ossuriyaning yuksalishi. Ossuriyada diplomatik aloqalar shakllari. Ossuriya diplomatiyasining asosiy yo'nalishlari. Qadimgi Hindistonda xalqaro munosabatlar va diplomatiya. "Artxashastra". Mauryalar sulolasi davrida Hindistonda xalqaro munosabatlar. Qadimgi Xitoyda xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Chjou davlatining tashqi siyosati. Diplomatik aloqalar nazariyasi va shakllari. Xan davlatining tashqi siyosati. U-di, Chjan San elchiligi. Ban Chao faoliyati.

### 2-mavzu. Qadimgi Yunonistonda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Qadimgi Yunonistonda xalqaro aloqalar shakllari va xalqaro huquq ko'rinishlari. Prokseniya, simmaxiya, amfiktioniya. Jamoalar va polislar o'rtasidagi munosabatlar. Krit davlati va Axeyya podsholigi davridagi xalqaro munosabatlar. Yunoniston-Eron urushlari. Delos simmaxiyasining tashkil topishi. Birinchi Afina dengiz ittifoqi. Sparta va Afina o'rtasidagi raqobat. Peloponnes urushi va uning asosiy bosqichlari. Yunonistonda Sparta gegemoniyasining o'rnatilishi. Eron va Sparta o'rtasidagi to'qnashuv. "Antalkid" sulhi. Ikkinchi Afina dengiz ittifoqi. Fivaning yuksalishi. Filipp II davrida Makedoniyaning kuchayishi. Korinf kongressi. Aleksandr Makedonskiyning (Iskandar) yurishlari. Ellinizm davrida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.

### 3-mavzu. Qadimgi Rimda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Qadimgi Rimda xalqaro aloqalarning shakllari va diplomatiya idoralari. Fetsiallar kollegiyasi. Rekuperatorlar. Rim huquqida xalqaro masalalar. "Xalqlar huquqi". Qadimgi Rimda elchilik masalalari. Respublika davrida Rimning tashqi siyosati. Rim-Italiya konfederatsiyasining barpo etilishi. Rim-Karfagen munosabatlari. Puni urushlari. Makedoniya urushlari. Sharqiy O'rta yer dengizida yangi xalqaro vaziyatning yuzaga kelishi va Rimning Sharqdagi tashqi siyosati. Rimning Shimoliy Afrikadagi siyosati. Rimning Pont podsholigi va Parfiyaga qarshi urushlari. Yuliy Sezar yurishlari. Imperiya davrida Rimning tashqi siyosati. Kappadokiya, Mavritaniya, Britaniya, Frakiya, Dakiya, Arabiston, Armaniston, Mesopotamiya va Ossuriyaning zabt etilishi. Mark Avreliy davrida Rimning tashqi siyosati. Markamon urushlari. Rim imperiyasi va varvarlar. Rim imperiyasining bo'linib ketishi. G'arbiy Rim imperiyasining bo'linib ketishi.

### 4-mavzu. O'rta asrlar Yevropasida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Vizantiya va "varvarlar" davlatlari. Vizantiyada xalqaro va diplomatik aloqalar shakllari. Yustinian I-ning tashqi siyosati va diplomatiyasi. Vizantiyada diplomatik xizmatning tashkil qilinishi. Rim papalari va franklar. Buyuk Karl davlati va uning tashqi siyosati. Qadimgi Rus davlati tashqi siyosati va diplomatiyasining asosiy yo'nalishlari. Rus davlati va Vizantiya. Buyuk Karl imperiyasining parchalanishi. G'arbiy Yevropada siyosiy tarqoqlik va xalqaro munosabatlar. Shaxsiy urush huquqi. "Cherkovlarning bo'linishi". Salb yurishlari XIV-XV asrlarda Yevropada xalqaro munosabatlar. Yevropa va Sharq mamlakatlari. Yuz yillik urush. Xalqaro munosabatlar va diplomatiyaning rivojlanishiga Italiya shahar – davlatlarining ta'siri (Venetsiya, Florensiya, Genuya va boshqa). Cherkov va xalqaro munosabatlari. Xalqaro huquqning shakllanishi. Xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillari. XVI asrda xalqaro vaziyat.

## 5-mavzu. Sharq mamlakatlarining O‘rta asrlarda xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi

Xitoyda xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Suy sulolasining tashqi siyosati. Tan imperiyasining tashqi siyosati. Xitoy va Turk xoqonligi. Yaponiya. Koreya, Vyetnam bilan munosabatlar. Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab yurishlar. Sun imperiyasi davrida Xitoyning tashqi siyosati va diplomatiyasi. Xitoy va mo‘g‘ullar. Min sulolasi davrida Xitoyning xalqaro ahvoli. Xitoyning Rus davlati bilan munosabatlari. Yaponiyada xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Yamato qabilasi boshchiligida umumqabilaviy ittifoqning vujudga kelishi. Xitoy va Koreya bilan aloqalar. Yaponiya va mo‘g‘ullar. Yevropaliklarning Yaponiyaga kirib kela boshlashi. Toyotomi Xideyosi tashqi siyosati. Ajnabiylarga nisbatan munosabat. Yaponiyaning tashqi dunyodan sun’iy yakkalanishi. Yagona arab davlatining shakllanishi va xalqaro munosabatlar. Muhammad alayhissalomning vorislari davrida arablarning tashqi siyosati. Ummaviylar davrida arablarning tashqi siyosati. Abbosiylar davrida arablarning tashqi siyosati. Arablar diplomatiyasi va unga oid manbalar. Sosoniylar davrida· Eronning tashqi siyosati va diplomatiyasi. Fotimiylar va mamluklar hukmronligi davrida Misr va Suriyaning xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi. XV-XVI asrlarda Eronning xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi. Safoviylar sulolasining tashqi siyosati. Rossiya va Angliya bilan aloqalar. Usmoniylar imperiyasining xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi. Usmon turklarining Kichik Osiyoda va Bolqon yarim orolidagi istilolari. Boyazid va Amir Temur. XV-XVI asrlarda Usmoniylar davlatining tashqi siyosati. Yevropa davlatlari bilan munosabatlar. Rossiya bilan munosabatlar. Turkiya-Eron munosabatlari.

## 6- mavzu. XVII asrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Ilk yangi davrda xalqaro munosabatlar va diplomatiyaning tavsifi. Xalqaro munosabatlar tuzilishidagi o‘zgarishlar. Kuchlar nisbati to‘g‘risidagi tushunchalar. Xalqaro munosabatlarga ta’sir etuvchi omillar. Tashqi siyosat tamoyillari va mezonlari. Xalqaro to‘qnashuvlar. Rishelye diplomatiyasi. O‘ttiz yillik urush. O‘ttiz yillik urushning asosiy bosqichlari. Vestfaliya sulhi. Osnabryuk shartnomasi. Myunster shartnomasi. O‘ttiz yillik urushdan so‘ng Yevropaning siyosiy xaritasi. Ingliz inqilobi va xalqaro munosabatlar. Ingliz-golland munosabatlari. Navigatsion akt. Yevropada Fransiyaning yetakchilik qila boshlashi. Lyudovik XIV tashqi siyosati. Devolyutsion urush. Ispan Niderlandlarini egallashga intilish. Axen bitimi. Gollandiya urushi va Nimvegen shartnomasi. Regensburg kelishuvi. Augsburg ligasi. To‘qqiz yillik urush. XVII asrda Boltiq mintaqasida davlatlararo raqobat. Yevropa davlatlari va Usmoniylar imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlar. Muqaddas liga.

## 7-mavzu. XVIII asrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

“Ispan merosi” uchun urush. Utrext, Rashtatt va Baden shartnomalari. Shimoliy va Sharqiy Yevropada xalqaro vaziyat. Pyotr I diplomatiyasi.

Shimoliy urush va Rossiyaning kuchayishi. Nishtadt tinnchligi. Avstriya-Prussiya raqobati. "Avstriya merosi" uchun urush. Aaxen shartnomasi.Prussiyaning buyuk davlatga aylanishi. Fridrix II-ning tashqi siyosati va diplomatiyasi. "Ittifoqlar to'ntarilishi". Yetti yillik urush. Parij tinchligi va Gubertusburg shartnomasi. Bavariya merosi uchun urush. Xalqaro munosabatlarda "Sharqiy" va "polyak" masalalari. Yevropa davlatlari va Usmoniylar imperiyasi. Rossiya-Turkiya urushlari. Polshaning bo'lib olinishi. AQSH-ning tashkil topishi va xalqaro munosabatlar. Mustamlakachilik maydonidagi kurash. Fransiyada inqilobning boshlanishi va xalqaro munosabatlar. Fransiya inqilobi davri diplomatiyasi. Fransiyaga qarshi dastlabki koalitsiya (ittifoq). Bazel bitimi.

**8- mavzu. XIX-XX asr boshida xalqaro munosabatlar va diplomatiya**

Konsullik va Birinchi imperiya davrida Fransiyaning tashqi siyosati va diplomatiyasi. Napoleon Bonapartning urushlari. Fransiyaga qarshi Yevropa davlatlarining koalitsiyalari. Napoleon Bonapartning tor-mor etilishi. Vena kongressi va xalqaro munosabatlarda yangi tartibning yuzaga kelishi. Vena kongressidan so'ng Yevropa siyosiy xaritasidagi o'zgarishlar. Vena kongressi va diplomatiya. Muqaddas ittifoq kongresslari va ularning vqarorlari."Vena tizimining" yemirilishi. XIX asr 30-40 yillaridagi inqiloblar va Yevropada xalqaro vaziyat. "Sharqiy masalaning" keskinlashuvi. Qrim urushi. Parij tinchlik shartnomasi. Italiya va Germaniyada birlashish jarayonlari va xalqaro vaziyat. Otto fon Bismark diplomatiyasi. Avstriya-Prussiya urushi. Fransiya-Prussiya urushi. AQSH-da fuqarolar urushi va xalqaro munosabatlar. XIX asrning oxirgi choragida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Urush vahimalari. Rossiya-Turkiya urushi (1877-78 yy.) va Berlin kongressi. Yevropada harbiy-siyosiy bloklarning (guruhlarning) tashkil etilishi. Mustamlakalar uchun kurashning keskinlashuvi. Rus-yapon urushi.

**9-mavzu. Birinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Urush yakunlari.**

Bolqon urushlari. Birinchi jahon urushi arafasida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Sarayevoda Frans Ferdinandning o'ldirilishi. Iyul inqirozi. Serbiyaga ultimatum. Birinchi jahon urushining boshlanishi va diplomatik kurash. Urushga kirgan davlatlar rejalari va kuchlar tartibi.Harbiy harakatlarning borishi va diplomatiya.G'arbiy frontdagi vaziyat. Sharqiy frontdagi vaziyat. Dengizda kurash. Boshqa davlatlarning urushga kirishi. AQShning urushga kirishi.Inqiloblar va ularning harbiy harakatlarga ta'siri. Urushning yakunlovchi bosqichi. Vilsonnning "14 bandi (moddasi)". Brest sulhi. Kompyen vaqtinchalik sulhi. Birinchi jahon urushi natijalari.

**10-mavzu. XX asrning 20-30 yillarda xalqaro munosabatlar.**

Kuchlar nisbatining o'zgarishi. Xalqaro munosabatlar Versal-Vashington tizimining yaratilishi. Parij tinchlik konferensiyasi va uning qarorlari. Millatlar Ligasi. Germaniya va uning ittifoqchilari masalasi. Vashington konferensiyasi

va Uzoq Sharqdagi xalqaro munosabatlar. Sovet Rossiyasining xalqaro maydonga chiqishi. Genuya konferensiyasi. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi sharoitlarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Versal-Vashington tartiblarining asta-sekin yemirilishi. London konferensiyasi. Jeneva konferensiyasi. Germaniya harbiy salohiyatining tiklanishi. Fashizm va xalqaro munosabatlar. Versal tizimining yo'q qilinishi. Yaponiyaning Uzoq Sharqdagi siyosati "Berlin-Rim-Tokio uchburchagi". Myunxen bitimi. Urush o'chog'larining yuzaga kelishi. Ikkinchi jahon urushi arafasida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Moskvadagi muzokaralar. Hujum qilmaslik to'g'risidagi sovet-german shartnomasi va maxfiy qo'shimcha protokol (1939 y.). SSSR va Germaniya o'rtasida do'stlik to'g'risidagi shartnoma (28 sentabr 1939 yil).

### 11-mavzu. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.Urush yakunlari.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Germaniyaning Polshaga hujumi. "G'alati urush". SSSR-Finlyandiya urushi. Daniya, Norvegiya, Gollandiya, Belgiya va Lyuksemburgni Germaniya tomonidan okkupatsiya qilinishi. Fransiyaning mag'lubiyati. Italiyaning tajovuzkorona harakatlari. "Britaniya uchun jang". Germaniyaning SSSRga hujumi. Yaponiyaning Perl-Xarborni bombardimon qilishi. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. SSSR-AQSH-Buyuk Britaniya ittifoqining shakllanishi. Sovet-german frontidagi harbiy harakatlar.Afrikadagi harbiy harakatlar. Atlantikadagi kurash. Yaponiyaga qarshi harbiy harakatlar. Ikkinchi frontning ochilishi.Urush davridagi xalqaro konferensiyalar. Tehron, Qrim, Potsdam konferensiyalari. BMT-ning tashkil etilishi. Germaniyaning mag'lub etilishi. Yaponiyaning mag'lubiyati. Ikkinchi jahon urushi yakunlari.

### 12-mavzu. Yevropa va Amerika mamlakatlari xalqaro va diplomatik munosabatlar tizimida (1945-1991 yy.)

Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyo iqtisodiy va siyosiy tartibi asoslarining shakllanishi. "Sovuq urushning" boshlanishi. Germaniya masalasi. Berlin inqirozi. GDR va GFRning tashkil topishi. Markaziy va Sharqiy Yevropadagi vaziyat. NATO va Varshava shartnomasi tashkiloti. Yevropa integratsiyasining boshlanishi. "Sotsialistik lagerdagi" inqirozlar. Vengriya, Chexoslovakiya, Polshadagi voqealar. 80-yillarning ikkinchi yarmi – 90-yillarning boshida xalqaro munosabatlar xarakterida tub burilish. AQSH va SSSR o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishi. Germaniyaning birlashishi. Ikki qutbli tizimning qulashi. Umumevropa jarayoni.SSSR-ning parchalanishi va MDH-ning tashkil topishi. Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yangi tartibotlarning o'rnatilishi. Yugoslaviyaning parchalaniishi. Markaziy va Janubiy Amerikada xalqaro vaziyat.

### 13-mavzu. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari xalqaro va diplomatik munosabatlar tizimida (1945-1991 yy.).

"Sovuq urushning" dastlabki inqirozlari (Turkiya, Eron). Ikkinchi jahon urushidan so'ng Falastin masalasi. Isroil davlatining barpo etilishi. Suvaysh inqirozi va uning oqibatlari. 1967-1973 yillarda Yaqin Sharqda halqaro vaziyatning keskinlashuvi. Arab-isroil urushlari.Falastin va Livan atrofidagi ixtilof. O'rta Sharqda xalqaro vaziyatning keskinlashuvi: Eron va Afg'oniston. Chet davlatlar aralashuvi muammosi. Eron-Iroq munosabatlari.Fors ko'rfazidagi vaziyat.

**14-mavzu. Sharqiy Osiyo mintaqasi xalqaro va diplomatik munosabatlar tizimida (1945-1991 yy.)**

Janubi-Sharqiy Osiyoda mustamlakachilik tizimining qulashi. Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston va Pokiston davlatlarining yuzaga kelishi va xalqaro munosabatlar. Koreya urushi. SSSRning Yaponiya va Xitoy bilan munosabatlari. Vyetnam urushi va xalqaro munosabatlar. Hindixitoydagi vaziyat. Kambodja inqirozi. SSSR-AQSH-Xitoy "uchburchagi" va Sharqiy Osiyodagi xalqaro vaziyat. Sharqiy Osiyo davlatlari tashqi siyosatidagi asosiy yo'nalishlar. Betarafchilik (neytralizm) va iqtisodiy mintaqaviylik (regionalizm).

**15-mavzu. XX asr oxiri- XXI asr boshida xalqaro munosabatlar va diplomatiya**

SSSR parchalanishining oqibatlari. Bir qutubli dunyoning shakllanishi. Rossiya-AQSH munosabatlari. NATOning kengayishi va Rossiya tashqi siyosatidagi o'zgarishlar. Yevropa integratsiyasi jarayonidagi yangi tendensiyalar. Postsovet va postsotsialistik makonda yuzaga kelgan nizolar va ixtiloflar. Bolqon mintaqasidagi xalqaro vaziyat. Yaqin Sharq muammosi. Janubiy osiyodagi vaziyat. Koreya yarimorolidagi vaziyat. Fors ko'rfazidagi vaziyat. Ixtilofchilik (konfliktnost) darajasining o'sishi. Xalqaro xavfsizlikka yangi tahdidlarning o'sib borishi.

**III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida talabalar Tarix fanida innovasiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya
2. Qadimgi Yunonistonda xalqaro munosabatlar va diplomatiya
3. Qadimgi Rimda xalqaro munosabatlar va diplomatiya
4. O'rta asrlar Yevropasida xalqaro munosabatlar va diplomatiya
5. Sharq mamlakatlarining O'rta asrlarda xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi

6. XVII asrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya
7. XVIII asrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya
8. XIX-XX asr boshida xalqaro munosabatlar va diplomatiya
9. Birinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Urush yakunlari.
10. XX asrning 20-30 yillarda xalqaro munosabatlar.
11. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.Urush yakunlari.
12. Yevropa va Amerika mamlakatlari xalqaro va diplomatik munosabatlar tizimida (1945-1991 yy.)
13. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari xalqaro va diplomatik munosabatlar tizimida (1945-1991 yy.)
14. Sharqiy Osiyo mintaqasi xalqaro va diplomatik munosabatlar tizimida (1945-1991 yy.)
15. XX asr oxiri- XXI asr boshida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Yevropada xavfsizlikni ta'minlash masalasi (1945-1990 yy.).
2. Yaqin va O'rta Sharqda xalqaro raqobat (1945-1990 yy.).
3. Yetakchi davlatlarning Uzoq Sharqdagi siyosati (1918-1939 yy.).
4. 1854-1918 yillarda Yaponiyaning tashqi siyosati.
5. Fashizm va Yevropada xalqaro munosabatlar.
6. Afg'on masalasi xalqaro munosabatlar tizimida.
7. Fridrix II-ning tashqi siyosati va diplomatiyasi (1740-1786 yy.).
8. XVIII asrda Angliyaning tashqi siyosati.
9. Yevropada diplomatik xizmatning shakllanishi.
10. Muqaddas Rim imperiyasi va Papalik.
11. Florensiya va Venetsiya xalqaro munosabatlar tizimida (XII-XV asrlar).
12. XVIII asrda Rossiya imperiyasining tashqi siyosati.
13. Arab xalifaligi va Yevropa.
14. O'rta asrlarda Xitoyda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.
15. Balqon yarim oroli xalqaro munosabatlar tizimida (XVII-XIX asrlar).
16. XVII-XVIII asrlarda Angliya-Gollandiya raqobati.
17. Savdo kompaniyalari va xalqaro munosabatlar (XVII-XIX asrlar).
18. Yevropa davlatlari va Usmoniylar imperiyasi (XVI-XVII asrlar).

| | |
|---|---|
| | 19. Gabsburglar monarxiyasining tashqi siyosati (XVIII-XIX).<br>20. XVII asrda Ispaniyaning Yevropadagi ustivorligi.<br>21. O‘rta asrlarda Hindistonda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.<br>22. Qadimgi Yunonistonda Afina-Sparta raqobati.<br>23. Filipp II tashqi siyosati va diplomatiyasi. Korinf kongressi (338-337 mil. avv. yillar).<br>24. Respublika davrida Rim diplomatiyasi va tashqi siyosati.<br>25. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida BMTning tutgan o‘rni.<br>26. XIX asrning ikkinchi yarmida Germaniyaning tashqi siyosati.<br>27. XX asrning ikkinchi yarmida mustamlakachilik tuzumining qulashi.<br>28. XIX asr oxiri - XX asr boshida Italiyaning tashqi siyosati.<br>29. Usmoniylar imperiyasi va XIX asrda ingliz-turk munosabatlari.<br>30. Eron va Afg‘onistonda ingliz-rus raqobati. |
| 3. | **VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>- Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>- Xalqaro munosabatlar va diplomatiyaning tarixiy rivojlanishiga doir asosiy yo‘nalishlar va tendensiyalar haqida ma’lumotga **ega bo‘lishi kerak;**<br>- Xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasida turli davrlarda ro‘y bergan tarixiy voqealar va jarayonlar to‘g‘risida tasavvurga **ega bo‘lishi kerak;**<br>- Turli tarixiy davrlarda xalqaro sohaga tegishli vujudga kelgan g‘oyalar va yo‘nalishlar kabi masalalari haqida bilimlarga **ega bo‘lishi kerak;**<br>- Xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasi tarixiy rivojlanishning jahon mamlakatlari uchun umumiy qonuniyatlar va farq qiluvchi xususiyatlar to‘g‘risida ma’lumotga **ega bo‘lishi kerak;**<br>- Egallagan bilimlarini atroflicha tahlil etish, dunyo mamlakatlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan keng qamrovli aloqalar taraqqiyotiga ta’sir etgan ichki va tashqi omillarga xolisona baho berish ko‘nikmalariga **ega bo‘lishi kerak;**<br>- Ta’lim jarayonida xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasiga oid voqealar va jarayonlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil etish ko‘nikmalariga **ega bo‘lishi kerak;**<br>- Fan bo‘yicha to‘plagan nazariy bilimlardan o‘zining amaliy faoliyatida qo‘llash malakasiga **ega bo‘lishi kerak.** |
| 4. | **VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida |

| | |
|---|---|
| | berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha og‘zaki savol javob, yozma ish yoki test topshirishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. G‘afforov Y.X. Xalqaro tashkilotlar hamkorligi. – T.: Ishonchli hamkor, 2021.<br>2. G‘afforov Y.X. O‘zbekiston va Osiyo mamlakatlari hamkorligi. – T.: Tamaddun, 2021.<br>3. Urakov D.J., Xaynazarov B.B. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. – T.: NIF MSH, 2024<br>4. Urakov D.J., Xolliyev A.G., Maxmudov O.A. va boshq., Jahon tarixi. 1 tom, 1-qism. –T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.<br><br>**XI. Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Богатуров А.Д., Аверков В.В. История международных отношений. 1945-2008. -М., 2010.<br>2. История международных отношений. Основные этапы с древности до наших дней. / Под ред. Г.В.Каменской, О.А.Колобова, Э.Г.Соловьева.– М., Логос, 2007.<br>3. Xolliyev A. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi. – T., 2014.<br>4. Black Jeremy. A History of Diplomacy. Reaktion Books, 2010.<br>5. Амиров В.Б., Михеев В.В., Потапов М.А. Россия-Китай и США-Китай: отношения нового типа. -М., 2010.<br>6. Бажанов Е.П., Бажанова Н.Е. Многополюсный мир. -М., 2010.<br>7. Батюк В.И. История международных отношений. – М.: Юрайт, 2019.<br>8. Белокреницкий В.Я. Восток в мирополитических процессах. Азия и Африка в истории международных отношений и современной мировой политике. -М.: Институт востоковедения РАН, 2010.<br>9. Богатуров А.Д. Великие державы на Тихом океане. История и теория международных отношений в Восточной Азии после второй мировой войны (1945-1995). -М., 1997.<br>10. Будакова В.П. Готы в эпоху великого переселения народов. -М., 1990.<br>11. Василенко И.А. Политическая глобалистика. -М., 2003.<br>12. Виноградов К.Б. (ред.) Монархи, министры, дипломаты XIX - начала XX в. (Сб. статей). –СПб., 2002.<br>13. Война, революция, мир. Россия в международных отношениях. 1915-1925. / Под ред. Ревякина А.В. -М.: Аспект Пресс, 2019<br>14. Драгомиров М. Австро-прусская война. 1866 год. -М., 2011.<br>15. Дубинин Ю.А., Мартынов Б.Ю., Юрьева Т.В. История международных отношений (1975-1991). -М., 2006.<br>16. Загорский А.В. Хельсинский процесс: Переговоры в рамках Совещания по безопасности и сотрудничеству в Европе 1972-1991 гг. -М., 2005. |

| | |
|---|---|
| | **Axborot manbalari**<br>www.pedagog.uz (Respublika pedagogika talim muassasalari portali)<br>www.cspi.uz (Chirchiq davlat pedagogika universiteti web-sayti)<br>www.edu.uz (O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali)<br>www.unilibrary.uz (Yagona elektron kutubxona axborot tizimi)<br>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portali |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “29” avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>**O.M.Normatov** – CHDPU, “Tarix” kafedrasi mudiri, dotsent tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).<br>**A.M.Toshtemirov** – CHDPU, “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**B.A.Odilov** – TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi” kafedrasi dotsenti , tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).<br>**O.A. Maxmudov** - ChDPU, “Tarix” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi. |